



Innovative Academy
Research Support Center

9(09)



**ZAMONAVIY DUNYODA
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA:
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**



«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI

**«ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY
VA AMALIY IZLANISHLAR»NOMLI № 09-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

OpenAIRE



zenodo



innacademy.uz

**«ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY VA
AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI № 09-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE ACADEMY RSC» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (EJAR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 1415-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 2181-2020, WWW.INNACADEMY.UZ VEB SAYTI) «ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI E'LON QILINADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. PEDAGOGIKA (TURLARI BO'YICHA)
2. PSIXOLOGIYA FANLARI
3. FILOLOGIYA
4. ADABIYOTSHUNOSLIK
5. LINGVISTIKA

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

1	TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING BONIYSI MAHMUDXO'JA BEHBUDIY <i>Aliyeva Nilufar Qo'chqar qizi</i>	1
2	O'RTA OSIYODA QO'LLANILGAN KALENDARLAR <i>Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi, Turaxonova Iroda Xo'shboqovna</i>	5
3	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TIL O'RGANISH KO'NIKMLARINING DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI <i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	11
4	XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BOSHLARIDA QO'QON XONLIGIDA DEVONDAGI HUYJATLARI TAVSIFI YORITILGAN MANBALAR <i>Mamayusufov Ma'murjon</i>	16
5	O'QITUVCHI SHAXSIY NAMUNASI AXLOQIY TARBIYALASHNING ASOSI <i>Asqarxonova Go'zal Xasan qizi</i>	19
6	EXPRESSION IS A WIDESPREAD LITERARY GENRE <i>Khamrokulova Shohsanam Gulomjon qizi, Zokirova Parvina Shavkat qizi</i>	24
7	MEN KORRUPSIYAGA QARSHIMAN <i>Jamilov Lazizbek Aziz o'g'li</i>	27
8	THE ROLE OF CLASSICAL LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF OUR SPIRITUALITY, ESPECIALLY IN THE IMAGE OF MUHAMMAD RIZO <i>Rahmonova Mohira</i>	31
9	КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕТЕРМИНАНТОВ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ <i>ОТАБОВ БИБУР</i>	36
10	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILAR BILAN PEDAGOGIC DIAGNOSTIKA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI <i>SALIXOVA ZULFIZAR MUZAFFAR QIZI</i>	40
11	ГАЗОБАРИК АЗОТЛАШ <i>ОХУНЖОНОВ ЗУХРИДДИН НОСИРЖОНОВИЧ</i>	42
12	ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА АНИҚ ФАНЛАРНИ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИ <i>МАМБЕТКАРИМОВ Б.М.</i>	51
13	INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'YINLARNING O'RNINI <i>SULTONOVA MADINA OBLAYOR QIZI, ERGASHEVA MOHINA ALISHER QIZI</i>	55
14	DEVELOPING PRONUNCIATION SUBSKILLS OF PUPILS <i>ISROILOVA SHAKHNOZA ISLAMBAEYVNA</i>	58
15	ВАЖНОСТЬ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ПРЕПОДАВАНИЕ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛАХ <i>МУМИНОВА ХАЁТХОН АДХАМОВНА</i>	64
16	KIMYO FANIDA ANORGANIK MODDALARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATINI MAKTAB DARSFIGIDA O'RGANILISHI <i>RAXMIDDINOVA MASHHURAXON ABDULLAJONOVNA</i>	72
17	1-SINF LARDA MATEMATIKA FANI DARS LARIDA ARIFMETIK AMALLARNI O'RGATISH USULLARI <i>MAMAJONOVA FARIDAXON</i>	79
18	GEOGRAFIYA FANINING TARIXI VA HOZIRGI DAVRDAGI RIVOJLANTIRISHI <i>ISMOILOVA SHOXIDAXON</i>	86
19	TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNINI <i>XOJIXONOVA SHOXISTA SAIDJONOVNA</i>	97
20	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH <i>RUZIBOYEVA XURSHIDAXON</i>	102
21	TARIX FANINING O'QITILISHIDA DARS JARAYONIDA INTERFAOL	107

	USULLARDAN FOYDALANISH Ermatova Xolidaxon Abduraximovna	
22	WOMANIST FEATURES IN THE NOVEL OF THE TEMPLE OF MY FAMILIAR BY ALICE WALKER NARİMANOVA JAMOLA YULDASHBAYEVNA	114

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING BONIYSI MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

Aliyeva Nilufar Qo'chqar qizi

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti

Harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6054642>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, publitsistlar, jadidchilar, Mahmudxo'ja Behbudiy, "Padarkush", drama, milliy fojia.

Turkistonda matbuot yuzaga kelishi bilan jurnalistikaga qiziquvchilar, ilk xabarchilar (muxbirlar) ham paydo bo'ldi. Mahalliy aholidan chiqqan dastlabki jurnalistlar asosan, "Turkiston viloyatining gazetasi"ga yozishdan boshlaganlar. Mulla Olim Abulqosimov, Sattorxon Abdulg'afforov, Ibnaminbek Xudoyorxonov, Furqat kabi dastlabki publitsistlarning qalami shu tarzda charxlandi. XX asrning boshiga kelib milliy matbuot paydo bo'lgach, musulmon qavmlarilan ko'zga qo'ringan publitsistlar bilan birga, muharrirlar ham yetishib chiqdi. Bular: Ismoil Obidiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarkori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ahmad Zaki Validiy, Ahmadjon Bektemirov, Mahmudov, Kabir Bakir, Ibrohim Tohiriy, Hamza, Saidrizo Alizoda, Ashurali Zohiriy, Haydarxo'ja Mirbadalov, Husayn Makayev va boshqalar. Ayni paytda, milliy matbuotning taraqqiy topa borishi jarayonida Abdulhamid Sulaymon o'g'li (Cho'lpon), Hoji Muin. Mirmuhsin Shermuhamedov, Shokirjon Rahimiy, Abdulla Qodiriy, Xolid Said, G'ozi Yunus, Mo'minjon Muhammadjonov (Toshqin), Fansurullobek Xudoyorxonov, Akobir Shohmansurzoda kabi iste'dodli publitsistlar ham shakllandi. Qardosh tatar-boshqird xalqlarining Ismoil Obidiy, Ahmad Zaki Validiy, No'shiravon Yevushev, Rauf Muzaffarzoda, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohirii, Ahmadjon Bektemirov, Husayn Makayev, Kabir Bakir, Fotih Bakir kabi, qondosh Ozarbayjon xalqining Muhammad Amin Afandizoda, Jalol Yusufzoda, Piri Mursalzoda singari fidoyi vakillari ham o'zbek publitsistikasining taraqqiysiga munosib hissalarini qo'shdilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Cho'lpon, Mo'minjon Muhammadjonov, Bahrombek Davlatshoyev kabi qalam sohiblari Turkistonda chiqadigan gazeta va jurnallarga yozish bilan birga, o'lkadan tashqarida chiqadigan "Sho'ro", "Vaqt" singari nashrlarda ham turli janrlardagi publitsistik asarlari bilan ishtirok etdilar.

Ulamolarning katta avlodiga mansub Saidahmad Vasliy, Abdurahmon Siddiqov (Sayyoh), Taqsudxo'ja domla, Fazlulvahob qori, To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo) ziyolilar ham publitsistik asarlari bilan jamoatchilik e'tiboriga sazovor bo'lishdi. O'zbek ayollaridan chiqqan ilk qalamkashlar Podshoxonim Jalilova, Nozimaxonim, Salomat Mahfuz va boshq.) asriy jaholat zulmatini yorgan nur kabi ko'zga tashlandilar. Rus tilida chiqqan gazeta va jurnallarda ham talaygina iqtidorli publitsistlar ijod qilishdi. Ular orasida yirik ijodkorlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Fitrat o'zbek publitsistikasiga asos soldilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yili 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tavallud topdi. 18 yoshidan qozixonada imom-xatiblik qila boshlaydi. 1903 yildan matbuotda o'z hxabarlari, maqolalari bilan qatnasha boshladi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalarida hodisalarning ijtimoiy mohiyatini ochib berishga intilgan. Uning "Tiyotru nadur?" sarlavhali maqolasida buni yaqqol ko'rish mumkin. Muallif "Tiyotru nadur?" deya savol bergach "Tiyotir ibratnamodur", "Tiyotir vazxonadur, tiyoti taziri adabiydir", deya unga timsolli ta'rif beradi. Ayni paytda, teatrning jamiyat a'zolariga saboq beruvchilik xususiyatini ham qayd etadi: "Teatrxa sahnlalarinda qo'yulatturg'on sarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, mazahga ya'ni kulgu drama, ya'ni hagomalik bir voqea va hodisani tasvir etib haloyiqg'a ko'rsatilur. Ul voqeadagi yomonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qo'shib, yaxshilik va harakat qilmoqg'a, tiyotirda ko'rsatilg'on voqealar sabab bo'lur".millat farzandlaridan turli sohalar uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlash kerak, deydi. Agar biz bu yo'lni tutmasak, boylıklarimiz, mulklarimiz, asboblارimiz boshqa millatlar qo'liga o'tib ketadi. Mahmudxo'ja Behbudiy boylarga murojaat etar ekan, bordi-yu, o'n nafar boy bir yilda ming so'mdan berishsa, 25 nafar bolani Toshkentda "diniy va zamonaviy" bir "pansion" ochsa bo'ladi, kechki va kunduzgi mukammal maktab tashkil qilib, har yili hukumat maktabida 50 bola tayyorlab chiqarsa bo'ladi, deya aniq takliflar kiritadi. "O'n yilda bulardin ...-deb yozadi u,-200 muhandis, duqtur, huquqshunos, muallim, zamona tojiri, valloh... chiqar va bizni zamon odamlari qatorida qo'yarlar va davlat ishiga kirarlar". Publitsist o'z maqolasida xalqning rus tilini, qonunlarni bilmaganligi uchun haquhuquqini, manfaatini himoya qila olmasligidan kuyunib gapiradi. Rus tilida bemalol gaplasha oladigan, qonunlarni yaxshi biladigan yuristlarimiz paydo bo'lsa, deb orzu qiladi. "Sud mahkamalarinda, davlat doiralarinda kirib, har huquqshunos o'z muvakkili va

o'z millati va o'z toifasi va o'z Vatani va o'z davlatining nafiga so'ylashur, mudofaa qilur".

Mana, Behbudiyning asosiy tilagi!

Mahmud dramaturg publitsist va jamoat arbobi. Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri yassaviy avlodidan. 18 yoshidan qozihonada mirzalik qiladi qozi muftiy darajasigacha ko'tariladi behbudiy haj safarida bo'gan chog'ida arabiston misr turkiyani kezib chiqqan. Sayohat davomida yandi maktab usuli jaded ochish fikri mustahkamlanib boradi. Samarqand yaqinidagi halvoyi qishlog'ida Ajze, Rajamenda, Abdulqodir Shukuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va UFAga borib u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yolga qo'yadi. Yandi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. "Risolari asbobi savod" , "Savod chiqarish kitobi" , "Risolayi jug'rofiya" , "Umroniy aholi geografiyasiga kirish" , "Mintaqaviy jug'rofiya mumiy" , "Qisqacha umumiy geografiya" , "Kitobat ul fatvol" , "Bolalar xati" , "Amaliyot" , "Islom tarixi" , "Islom" kabi kitoblar chop ettiradi. Behbudiy 1914-yilda Samarqand gazetasini chiqaradi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida haftada ikki marta chop etildi. 45 soni chiqgach, moddiy tanqislik tufayli nashr yo'xtadi. Shu yili 20 avgustdan oyna jurnal chiqa boshladi. Jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, sher maqola bolib, maqolalar forsha, e'lonlar esa ruscha ham berib borildi. Jurnal Kavkaz Tatariston, Eron, Avg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Fitratning bayonoti sayyohi hindi sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi. Behbudiy 1914 yil 29 mayda ikkinchi marta arab mamalakatlariga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashqobot, Krasnadavoskiy, Kislovodsk, Jeleznovodisk, Roskov, Odessa shaharlarida bo'ladi. 8-iyunda Istanbulga keladi , undan adarnaga o'tib yana Istanbulga keladi va 20-iyunda Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashadi . Quddus, Bayrut, Yofa, Halil ar rahmon shaharlarida bo'ladi . Sayohat xotiralari "Oyna" jurnalida bosilib turadi. Behbudiyning hozirda aniqlangan maqolalari soni esa 300 taga yetdi. 1919 yillar bahorida Behbudiy mamalakatdan chiqib keta yotib, Shaxrisabzda inqilobiy favqulotda komissiya ayg'oqchilari ko'magida, Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinadi. Hamrohlari Muhammad qul, Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi. Va qatl qilinadi. Bu voqea esa Samarqandda bir yildan so'ng ma'lum bo'ladi. Fitrat, Cho'lpon, Ayniy va boshqa yozuvchilar Behbudiylga atab marsiyalar yozadilar. Qarshi shahri 1926 yil 1932 yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy 1911 yilda " Padarkush" dramaasini yozdi. Bu birinchi o'zbek drammasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asarda mazmunan sodda bo'lib o'qimagan, johil va nodon bolaning otasini o'ldirgani haqida edi. Bu asar janrini "milliy fojia" deb atagan nashr qilinishiga

esa chor senzurasini yo'l qo'ymagan. Drama 1913 yilda bosilib chiqqan. Ammo saxna yuzuni ko'rish uchun yana bir necha yil vaqt ketadi. Samarqandda 1914 yil 25 yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatdi. Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasini shuni tasirida yozganligi ham ma'lum barchaga. "Padarkush" ham janr , ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914 yilda 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtirildi.

Shu tariqa XX asr o'zbek jadidchilikning yetakchi nomoyondalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy xalq yuragida o'chmas iz qoldirdi. Uning xotirasi barhayot

O'RTA OSIYODA QO'LLANILGAN KALENDARLAR

Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi, Turaxonova Iroda Xo'shboqovna

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6061641>

Annotatsiya: O'rta Osiyo xalqlarining dehqonchilikda erishgan yutuqlari. Zardo'sht quyosh kalendari. VII asrda Zardo'sht quyosh kalendari isloh qilinishi. Xorazm quyosh kalendari. Abu Rayhon Buruniyning "Osor-ul boqia" asarida Xorazm quyosh kalendari haqidagi ma'lumotlar. Muchal kalendari. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otut turk" asarida muchal kalendari haqidagi ma'lumotlari XX asrda O'zbekistonda qo'llanilgan kalendarlar

Kalit so'zlar: O'zbek xalq oynomasi. Hamal, xut, javzo, saraton, asad, sunbula, aqrab, qavs, jaddi va boshqa oy nomlari haqida. Sharq xalqlarining muchal yil hisobi. Maxmud Qoshg'ariyning o'zbekcha muchal haqidagi rivoyatlari. Qadimgi yapon afsonasi. Muchal yil oylari va osmondagi o'n ikki yulduz turkumi - o'n ikki burj haqida.

Quyoshning koinotdagi harakati asosidagi ilk taqvim dastlab Qadimgi Sharqda yaratiladi. Zakovatli ajdodlarimiz xali Hozirgi miloddan burungi uchinchi asrdayoq shamsiya yil hisobini ixtiro etadilar. Uning oylari ham xuddi o'sha manzil burjlaridagi yulduz to'dalari nomi bilan ataladi. quyosh olam belbog'ini (ekvatorini) kesib, shimoliy yarim sharga o'tgan daqiqa yilning boshi qilib belgilanadi. Bu hodisa Hozirgi hisob bilan aytganda 21-mart oqshomida sodir bo'ladi. O'sha dam butun yer yuzida kecha bilan kunduz teng 12 soatdan iborat bo'ladi. Shamsiya yil hisobining birinchi kuni o'sha zamonlardan buyon yil boshi Navro'z deb atalib, bayram qilinadi. Shodiyonalar o'n kungacha davom etardi. Uning rasm qoidalari, taomillari odamlar hayotiga, ma'naviy dunyosiga, kon- koniga singib ketgan edi. Shamsiy yil hisobi shu qadar to'g'ri, aniq va puxta tuzilganki, unda quyosh va yerning, shuningdek, burjiy yulduz to'dalarining harakatlari haqiqatga eng yaqin tarzda o'z ifodasini topadi. Sharq xalqlari kundalik taomillarini, mintaqaning ob - havosi, iqlim sharoitlari, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va boshqa sohalaridagi ishlar mavridini, mexnat maromlarini juda to'g'ri belgilaydi. Shuning uchun ham Sharq xalqlari orasida tez tarqaladi. Hindistonu O'RTA Osiyo, Eronu-Arabiston va undan Afrikaga o'tib, xatto qadimiy Misrni ham qamrab oladi. Shamsiyga ham "xijriy" so'zi qo'shiladi. buning boisi shuki, 11- asr allomalari taqvimini qayta tiklagan maxallarida uning birinchi yilini payg'ambarimiz Muhammad Alayxissalomning Makkadan Madinaga ko'chgan yilidan boshlab oladilar va xijriy shamsiy deb ataydilar.

Bobokalonlarimizning turmush tarzi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ular ekinlarni kay maxalda ekish, yilning qaysi muddatida qanday parvarish qilish, hosilni qachon yig'ishtirib olishni yaxshi bilganlar. Tajribali cho'ponlar esa erta ko'klamda yaylovga chiqish, o'tloqlarni almashtirish, qo'zilatish davrini o'tkazish hisobiga amal qilishgan. Beruniyning guvoxlik berishicha, Qadimgi xorazimliklarning o'ziga xos yil hisobi bo'lgan, ular quyosh va oy harakatini, yulduz burjlarini holatini yaxshi bilganlar. Shu bois ular yilnoma yaratish uchun samoviy jismlarning tarixiy harakatini asos qilib olishgan. qadim zamonlarda yaratilgan o'zbek xalq oynomasi bobokalonlarimizning ko'p yillik hayotiy tajribalari, kuzatishlari va turmush tarzi bilan bog'liq. An'anaga ko'ra, o'zbek xalq oynomasi hamaldan boshlanadi. Hamal bahor to'qsonning birinchi oyi bo'lib, 21-martdan 21-aprelgacha davom etadi. "Hamal" arabcha so'z bo'lib, "qo'zi" degan ma'noni anglatadi. Ma'lum bo'lishicha Qadimgi munajjimlar osmondagi 12 yulduz burjidan birinchisiga kiruvchi yoritgichlar tupini qo'ziga o'xshatishgan. qadim zamonlardanoq ko'klamning ilk oyi juda katta hayotiy ahamiyatga ega deb qaralgan.

Buyuk turkiy olim Maxmud Qoshg'ariyning yozishicha, turklar ilk bahor oyini "ulug' oy" yoki "umid oyi" deb ataganlar. Bu davrda ular Navro'zi olamni nishonlaganlar, ommaviy sayl tomoshalr o'tkazishgan. qish bo'yi so'lim fasl - ko'klamni orziqib kutgan odamlar yam -yashil dala - qirlar bo'ylab chechaklar ochilgan chog'da saylga chiqishgan. Xorazmlik dehqonlar Hozirgacha dala ishlari bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish muddatini issiq ulkanlarga qishlash uchun uchib ketgan qushlarning ko'klamgi qaytish vaqtiga qarab belgilaydilar. Ular bahorda qushlarning uchib kelish vaqtida ob-havoda ham muayyan o'zgarishlar yuz beradi deb hisoblashadi. Bahor faslida qushlarning uchib kelish muddati bilan bog'liq o'ziga xos vaqt hisobi yaratilgan bo'lib, u Xorazmda "qush qaytdi", Buxoroning ayrim qishloqlrida esa "qush dalg'asi" yuritiladi. "Kay" so'zining ma'nosi "qattiq shamol", "dovul" demakdir. Xorazmliklar har bir qush kelishi bilan havo o'zgarishi sodir bo'ladi deb hisoblashadi. Taniqli olim I. Jabborovning hisob - kitoblariga ko'ra, Xorazm voxasi dehqonlari dala ishlarini bajarish muddatini qadim zamonlardan beri yettita qush kaytishiga qarab belgilasharkan. Shunga ko'ra qush kaytishining ilk darakchisi fevral oyining oxirida qor aralash yomg'ir yegib turganda uchib keladigan chay degan qushdir. Bu qush ovozi eshitgan dehqon yaqin kunlar ichida havo iliq bo'lib ketishini bilgan va ekin ekish oldidan qilinadigan ishlarni boshlagan. Ba'zi qariyalarimizdan: "Xutda tommasin, hamalda tinmasin", -kabi maqollarini eshitamiz. Bu

maqolda xut oyi hamaldan oldin kelgani uchun yomg'ir yegmasligini istaganliklari bilinib turibdi. Chunki yerlar tezroq kurib, ekin ekilishi kerak. Hamal yomg'iri, ayniqsa, kuzgi bug'doyning "koni". Shuning uchun "xut bilan hamal orasida yomg'ir yegsa, somonlar ham oltin bo'lar",- deyдилar. Hamaldan keyin savr oyi kiradi. Savr- xo'kiz demakdir. Osmonda ikkinchi yulduz burjidagi samoviy jismlar ho'qizga o'xshab ko'ringani uchun savr deb nomlashgan. Dehqonlar savr kirishi bilan dala ishlarini yanayam qizitib yuborishadi. Savrning dastlabki kunlari ko'pincha qurg'oq keladi. Shu bois dehqonlar "hamal yig'loq, savr - qurg'oq" deb atashadi. Oynomaning uchinchi oyi javzo bo'lib, bahor fasli yoz to'qsoni bilan almashinadigan vaqtiga to'g'ri keladi. Javzo falakiyot ilmi talqiniga ko'ra o'n ikki burjidan uchinchisining nomi bo'lib, ma'nosi "Egizak qizlar" demakdir. Dehqonlar javzoni "Yuz usti" deb ataydilar. Dehqonlarning an'anaviy hisob-kitobiga ko'ra "Yuz hisobi" mezon oyi kirishiga yuz kun qoldi, degan ma'noni anglatadi. Ekin ekishda bu vaqtda har bir kunning ahamiyati katta bo'lib, u hosil yig'ishtirilayotganda yaqqol sezilgan. Javzoda yomg'ir yegishi eng yomon holat bo'lgan.

Shuning uchun xalqimiz orasida "Javzodan yoqqan yomg'irdan ilon yoqqani yaxshi" deb naql qilishgan. Saraton yoz to'qsonning birinchi oyi bo'lib, 21-iyundan 21-iyulgacha davom etadi. qo'qdagi 12 burjdan 4 chisi saraton "qisqichbaqa" degan ma'noni anglatadi. Saratonda ekinlar parvarishiga e'tibor kuchayadi. "Saratonda sara ekish, qolaversa tariq ekish" degan naql bor. Saratonni "yoz chillasi" deb ham ataymiz. "Chilla" yoz va qish to'qsonning eng issiq va eng sovo'q kirk kunlik muddati atamasini o'z ichiga oladi. "Chilla-har dami tilla", "Chilla suvi-tilla suvi" kabi maqollarda ham dehqonchilik oynomasining bu davri naqadar mas'uliyatli ekanligi ta'kidlanadi. Yoz to'qsonning O'rtasida asad oyi doxil bo'ladi. Falakkiyot ilmiga ko'ra, 12 burjdan 5 chisini sher shaklida tasavvur qilishgan va unga asad, sher nomini berishgan. quyosh asad burjiga o'tganda dehqon oynomasida asad oyi boshlanadi. U oy iyulning oxirida boshlanib quyosh juda qizdiradi.

Asaddan keyin sunbula oyi Hozirgi avgustga to'g'ri keladi. Sunbula yulduz burjidan 6 chisi bo'lib, "boshq" degan nomini anglatadi. Dono xalqimizda "sunbulada suv soviydi" degan naql mavjud. Buning boisi shuki yoz to'qsoni oxirida chilla tugashi bilan, ulkanmizda fasllar almashadi., ariq va daryolardagi suv harorati pasayadi. Yoz kechasi asta-sekin uzayadi, tunlar salqin bo'ladi. "Tarozida tong soviydi, mezonda kun" maqolida ham oynomamizning bu davri ob-havosidagi o'zgarishlar borasidagi ma'lumotlar beradi. U 21-sentabrda 21-oktabrgacha davom etib dehqonchilik uchun eng ma'suliyatli davrlardan biri

hisoblanadi. qishdan darak beruvchi sovo'q shamollar boshlanadi. Bundan so'ng aqrab oyi kiradi. Aqrab arabcha chayon demakdir. "Aqrab ekinlar kelar qaqrab", degan maqol ham bor. Bu oyda deyarli barcha ekinlarni dov-daraxtlar bargini sovo'q urib ketadi. Dehqonlar bu oygacha bug'doyni maysalatib olishga shoshiladi. Bog'bonlarning ham yumushi ko'payib, toklarni butash, xom toq qilish, kumish kabi ishlab bajariladi. kuz faslining yakunlovchi oyi qavs bo'lib, arabcha bu so'zning ma'nosi yoy-kamalakdir. U 21 noyabrdan 21 dekabrgacha davom etadi. Dehqonlar bu oyda ekindan bo'shagan yerlarni shudgor qilib yaxob suvi berishadi. Jaddi (arabcha "uloq") 21-dekabrdan 21-yanvargacha davom etadi. Jaddi doxil bo'lishi bilan keksalar "To'qson kirdi" deydilar. Chunki shu davrdan qish to'qsoni boshlanadi. kunlar ham asta-sekin uzaya boshlaydi. Jaddining oxirida qishning eng sovo'q payti qish chillasi kiradi. Xalqimiz bu davrni ikkiga: katta va kichik chillaga bo'ladi. Katta chillaning O'rtasida, 21 yanvardan dalv oyi doxil bo'ladi. Dalv 12 burjdan 11 chisi nomi bo'lib, qudo'qdan suv oladigan charm idish "kovga" dehqonlar yangi ekin ekish Hozirligini ko'rishni boshlaydilar. Ya'ni dalalarni o'q'itlaydilar, chunki bu vaqtda qishning ko'pi ketib ozi qolgan bo'ladi. Dehqon oynomasi xut bilan yakunlanadi. Xut Qadimgi falakiyotda 12 chi yulduz burjining atamasi bo'lib, ma'nosi baliq demakdir. Xut oyi qish to'qsoni va xijriy shamsiy yilni yakunlab yangi yilni boshlab beradi. Dehqonlarimiz "Xut kirdi yer ostiga dud kirdi", deyishadi, ya'ni xut oyida uyg'onish boshlanadi. Xut oyining oxirida ko'klam nafasi kelib turgan bir vaqtda diyorimizda Qadimgi xalq bayrami bo'lmish Navro'zi olam nishonlanadi. Navro'z yangi yilni, yangi oynomani boshlab beradiga an'naviy shodiyonadir. Avesto yil hisobi - Eron va Markaziy Osiyo xalqlari qo'llagan eng qadimgi yil hisobi, taqvim. Bu taqvim zardusht ta'limoti bilan birga vujudga kelganligi uchun zardusht taqvimi, oy nomlari va boshqa hamma atamalari "Avesto" kitobidan olinganligi uchun avesto taqvimi ham deyiladi. Eronda qo'llangan eng qadimgi taqvim bo'lganligi uchun hozirgi ilmiy adabiyotlarda qadimgi eron taqvimi nomi ham ishlatiladi.

Zardusht yil hisobi quyosh yiliga asoslangan bo'lib, 12 oydan iborat. Har bir oy 30 kun, yana qo'shimcha 5 kun bor. Bu 5 kun alohida oy hisoblanadi. Taqvimdagi 12 oyning nomi "Avesto"dagi ma'budalarning nomiga borib taqaladi. Oy nomlaridan tashqari oy tarkibiga kirgan kunlar (30 kun) ning ham alohida-alohida nomlari bor. "Avesto"ning milodiy VI asrda sosoniylar davrida tuzilgan matnida oylar va kunlarning to'liq nomi ro'yxati keltirilgan. Biroq ba'zi taqvim atamalari "Avesto"ning eng azaliy qismlari deb hisoblanuvchi miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tarkib topgan. "Gotlar"da ham uchraydi. Zardusht taqvimi qachon va qaerda tuzilganligi to'g'risida fanda hozircha aniq

ma'lumot yo'q. Olimlarning taxmin qilishicha bu taqvim Sharqiy Eron yoki Markaziy Osieda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida tuzilgan. Dastlab, g'arbiy Eronda Ahmoniylar davrida rasmiy davlat taqvimi sifatida qabul qilingan (ilmiy adabiyotlarda qadimgi eron yil hisobi deb atalishining sababi ham shu). Bu holat Ahmoniylar davrida zardusht dinining keng yoyilishi bilan izohlanadi Zardusht taqvimi Hindistonda hozirgi vaqtda istiqomat qilayotgan zardusht jamoalarining taqvimi bilan qiyoslab ko'rilganda mazkur taqvim g'arbiy Eronda Ahmoniylar davrida miloddan avvalgi 505, 490, 484, 481, va 441 sanalarning biridan boshlangan deb hisoblash mumkin. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Xronologiya" asarida yuqoridagi yillarning eng oxirgisi-miloddan avvalgi 441-yilni eng to'g'ri sana deb oladi va zardusht taqvimi shu yildan boshlangan deb ko'rsatadi.

Zardusht taqvimi 365 kun, har biri 30 kundan tuzilgan 12 oy va yana 5 kundan iborat, to'rt yilda yana 1 kun orttirilgan. Demak, har to'rt yilda (kabisa yilida) 12-oyning oxiriga 5 kun emas, 6 kun qo'shilgan. Zardusht yil hisobi qadimgi eron manbalarida - Behstun va Naqshi Rostam kitobalarida hamda boshqa yozma yodgorliklar va hujjatlarda tez-tez tilga olinadi. Shunday qilib zardusht taqvimi Ahmoniylar davridan boshlab davlatning ish yuritish bo'yicha rasmiy taqvimi bo'lib qoladi. Shu bilan birga bu taqvim zardusht dini bayramlari, rasm-rusumlarini olib borishda diniy taqvim ham bo'lib qolaveradi. Zardusht oylarining nomlari: 1. Farvardinmoh, 2. Ordi - behishtmoh, 3. Xurdodmoh, 4. Tirmoh, 5. Murdodmoh, 6. Shahrivarmoh, 7. Mehrmoh, 8. Obonmoh, 9. Ozarmoh, 10. Daymoh, 11. Bahmanmoh, 12. Isfandarmazmoh. Har bir oyda 30 kunning maxsus nomi ham bo'lgan ular quyidagilar: 1. Xurmuz, 2. Bahman, 3. Urdubehisht. 4. Shahrivar, 5. Isfandarmaz, 6. Xurdod, 7. Murdod, 8. Dayba ozar, 9. Ozar, 10. Obon, 11. Xur, 12. Moh, 13. Tir, 14. Jo'sh, 15. Dayba mehr, 16. Mehr, 17. Sarush, 18. Rashn, 19. Farvardin, 20. Bahrom, 21. Rom, 22. Bod, 23. Daybadin, 24. Din, 25. Ard, 26. Ashtoz, 27. Asmon, 28. Zomyoz, 29. Morasfand, 30. Aniron. O'ttiz kunga atab qo'yilgan mazkur nomlar yilning o'n ikki oyidagi hamma kunlarga taalluqli bo'lgan.

Qadimgi Eron yil hisobi, ya'ni zardusht yil hisobi milodiy 632 yilgacha qo'llanib keldi. 632 yilda sasoniy podshohlardan Yazdgird III zardusht taqvimini isloh qildi. Yangi taqvim shu podshohning nomi bilan Yazdgird taqvimi nomini oldi. Boshlanish vaqti ham Yazdgird III ning taxtga o'tirgan kuni - milodiy 632-yil 16-iyundan hisoblandi. Qadimgi eron, ya'ni zardusht taqvimining atamalari, xususan oynomlari fors-tojik va turkiy manbalarda o'rni-o'rni bilan uchrab turadi. Mazkur atamalar ko'proq eroniy va turkiy xalqlarning eng

qadimgi zardusht ta'limoti bilan bog'liq rasm-rusumlari, urf-odatlar bilan bog'liq holda tilga olinadi.

Eron kalendarida esa fevralning 28 emas, 29 kun bo'lishi xisobiga 32 yilda 8 kun qo'shiladi. Buning natijasida Grigoriy kalendarida 3300 yilda bir kunlik xato yig'lsa, Xayyom kalendarida bu xato 5000 yilgagina sodir bo'ladi. Xayyom kalendarini yo'qolib ketganligi sababli undan 500 yil keyin Yevropada Grigoriy boshchiligidagi bir guruh olimlar buyuk astranom bajargan ishni qaytadan qilishga majbur bo'ldilar.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A – “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”. Toshkent, 2008.
2. Karimov I.A - “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T, Sharq, 1998.
3. Karimov I.A - “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. 2011
4. A.P.Pronshteyn, V.YA.Kiyashko - “Xronologiya”. M.1981.
5. A.P.Pronshteyn, V.YA.Kiyashko – “Vspomogatelno'e istoricheskiye dissiplino”. M. 1973.
6. V.B.Kobrin, G.A.Leontyeva, P.A.Shorin - “Vspomogatelno'e istoricheskiye dissiplino”. M. 1984.
7. Z.U.Choriyev . Ioffe - “Xronologiya va metrologiya”. T.1999 yil.
8. N.V. Volodomonov – “Kalendar: o'tmishda, hozir, kelajakda”. T. 1976.
9. E.Bikerman. “Xronologiya drevnego mira. Blijniy Vostoq i antichnost”. M. 1976.
10. A.Narziqulov - “Dehqon taqvimi” T.1991.
11. O.Mo'minov - “Qiziqarli geografiya”, Toshkent 1978 yil,
12. I.A.Klimishin - “Kalendar i xronologiya”. M. 1985.,
13. YE.I.Kashniyeva – “Xronologiya”.M.1967y
14. E.Bikerman – “Xronologiya drevnego mira”, M.1978.
15. “Qadimgi Gretsiya va Rim tarixi”. TYU 1970.
16. Z.U.Choriyev va Ioffe – “Xronologiya va metrologiya”. T .1999.
17. Z.Rahmonqulova – “Xronologiya”. 2008.
18. O.Rahmatullayeva, J.Salomov – “Xronologiya”. 2012.
19. F.Yormatov – “Xronologiya va metrologiya” – O'quv-uslubiy majmua. Termiz 2015.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TIL O'RGANISH KO'NIKALARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ashurova Dilrabo Isroil qizi

TerDU Pedagogika fakulteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6063384>

Annotatsiya. Ushbu maqolada didaktik o'yinlar, uning ta'rifi, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun til o'rganishdagi imkoniyatlari, hozirgi davrdagi til o'rganishdagi yutuqlari haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Didaktik o'yin, ijodiy faoliyat turi, ta'lim vastasi, motivatsiya, ko'nikma, boshlang'ich ta'lim, chet tili.

“O'yin bola faoliyatining asosiy turidir.”

P.P.Blonskiy

Kirish. Hozirgi kunda Respublikamizda ta'limning barcha sohasi jadallik bilan rivojlanmoqda. Yoshlar uchu keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillik yillaridanoq umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarning ta'lim – tarbiya olishiga katta ahamiyat bergan. O'zbekistonda ta'lim sifatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator farmonlar va qarorlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, 1-sinfdanoq chet tillarni o'qitish kerakligi 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1875-sonli *qarori* bilan ham tasdiqlab qo'yildi. Bundan tashqari, 2020 yil 6-noyabr “PF-6108 O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” farmonda ham, yurtimiz kelajagi bo'lgan avlodni eng kichik davridanoq ilm o'rganishga, tillarni o'zlashtirishga alohida e'tibor berish kerakligi ta'kidlab o'tildi. 2021-yil, 6-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektorda davlatimiz rahbari shunday fikrlarni keltirib o'tdilar: “Chet tillarini o'qitishga urg'uni boshqacha qo'yish kerak. Katta korxonalar qurilyapti, texnologiyalar o'rnatilyapti. Xorijiy tilni mukammal bilish zarurati yuzaga kelyapti. Barcha hududlar rahbarlari, ta'limga aloqador tashkilotlar o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborimizni chetda qoldirmay, chet tillarini o'rgatish bo'yicha jiddiy shug'ullanishi kerak. Maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart”.¹

Har bir viloyatda bittadan universitet chet tillari bo'yicha tayanch oliygoh

¹2021-yil 6-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor dagi nutqidan

sifatida belgilanishi ham ta'kidlandi. Shu boisdan, ta'limning barcha tizimida chet tillarini o'qitishning yanada samarali usullari, didaktik vositalariga e'tibor kuchaytiriladi. Ya'ni tilni o'rgatuvchi interaktiv materiallar, internet platformasi va mobil ilovalari yaratilib, maktab va bog'chalarda ommabop videodarslardan keng foydalanish yo'lga qo'yiladi. Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufayli bola o'yin orqali atrof-olamni kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan holda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. O'yin bolaning nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllanitirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida esa chet tillarni o'zlashtirish uchun samarali metodlar, interfaol usullar ishlab chiqilmoqda. Shular jumlasidan, zamonaviy pedagogika uchun, o'quvchi-yoshlarning chet tillarini egallashida didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Didaktik o'yinlar - bolalarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yin turlaridir. Ular bolalarni o'qitishning o'ziga xos muammolarini hal qilishga qaratilgan, ammo shu bilan birga, ular tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarining bilim faolligini oshirishning samarali usullaridan biri bu didaktik o'yin. O'yin davomida bolalikning ajoyib dunyosi o'quvchilar kiradigan ajoyib fan dunyosi bilan bog'liq bo'ladi. O'yinni dunyoning sakkizinchi mo'jizasi deb atash mumkin, chunki u juda katta ta'lim, va rivojlanish imkoniyatlariga ega. O'yin jarayonida bolalar atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risida turli xil bilimlarga ega bo'ladilar. O'yin bolalarning kuzatuvchanligini va narsalarning xususiyatlarini aniqlash, ularning muhim tomonlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishiga, ularning tafakkurini, e'tiborini va ijodiy tasavvurlarini yaxshilashga katta ta'sir ko'rsatadi. Mashhur fransuz olimi Lui de Broyl barcha o'yinlarning (hatto eng sodda o'yinlarning ham) olam bilan bog'liq ko'pgina elementlari borligini ta'kidladi. O'quvchilar o'zlarini o'rganish, yangi narsalarni eslash, g'ayrioddiy vaziyatlarda o'zlarini yo'naltirish, g'oyalar va tushunchalar zahiralarini to'ldirishlarini payqamaydilar. Hatto eng passiv bo'lganlar ham o'yinni katta ishtiyoq bilan boshlashadi, sheriklarini tushirib yubormaslik uchun barcha harakatlarni qiladilar. Har bir davrda ham bolaga ta'limiy-ilmiy tushuncha zarurati mavjud bo'lgan. Bu jarayonlarda ustoz, murabbiylar, mohir pedagoglar turli xil ta'limiy o'yinlardan foydalanishgan. Jumladan, didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Dars samaradorligini ta'minlashda turli ta'lim vositalaridan foydalanish, darslarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi va texnologik harakterdagi didaktik o'yinlarning imkoniyatlari beqiyosdir.

Chet tili darslarida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab tashkil etiladigan didaktik o'yinlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularda o'qishga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, o'qishga nisbatan qiziqish esa bilimlarni puxta o'zlashtirish garovidir. Bu fikrni o'tmishdagi allomalar ham ta'kidlab o'tishgan, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy "Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir" deydi.² Bu fikrning darsga tadbiqi o'quvchi bilimlarni o'zlashtirishi uchun qiziqish va qunt bilan kirishmog'i lozimligini anglatadi, O'quvchilarni darsga, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqtirish yo'llaridan biri esa didaktik o'yinlardan foydalanishdir. Yoshlarga bilim berish, ularda muayyan ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda qiziqish va qobiliyatlarini o'stirishda didaktik o'yinlarning ahamiyatiga oid fikrlar sharq qomusiy olimlari Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, kabi mutafakkirlarning asarlarida ham fikrlar keltirilgan.

Zamonaviy o'yinlarga qiziqishning ortishi sababi zamonaviy o'rganish. Birinchidan, an'anaviy o'qitish usullaridan va o'qitish usullaridan voz kechish mavjud. Chet tilidagi darsda o'yin usullaridan foydalanish har qanday yoshda bolalarning aqliy rivojlanishi uchun o'yinning juda katta ma'nosi bilan asoslanadi. Xuddi shu o'yin darsning turli bosqichlarida ishlatilishi mumkin. Ammo barchasi o'qituvchi, uning fe'l-atvori va ijodiy qobiliyatlarining o'ziga xos ish sharoitlariga bog'liq. Shu bilan birga, o'yin davomida tejamkor bo'lishi kerak va uni hal qilishga qaratilgan muayyan vazifalar. O'yin kuchlanishni olib tashlashi va talabalar faoliyatini rag'batlantirishi kerak, ammo akademik ishning belgilangan ritmini bitta ishtirokchining passiv yoki befarq qoldirmaslik kerak. O'yin har bir talabani qo'shma faoliyatga kirishini talab qiladi. Ishtirokchilar chet tilida muloqot qila oladiganidan mamnun bo'lishlari kerak.

Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin [qoidalari](#), o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har

² Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri"-T; Fan 1993,85 b

tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

O'yin davomida o'quvchi buni osongina va tabiiy ravishda sezmasdan lingvistik va nutq qiyinchiliklarini yengillashtiradi. Signal tilni egallash uchun kuchli rag'batdir. O'yinlarning imkoniyatlarini ortiqcha bo'rttirish ham yaramaydi. Shunga erishish kerakki, o'yin o'quv jarayonining tarkibiy qismiga aylansin. Bunga erishish uchun darslarning qaysi qismida, qanday tartibda va mavzular mazmuniga muvofiq holda o'yinlarni tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilishi lozim. Ta'lim metodlarini mazmunga mos holda tanlash azaldan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ta'lim metodlarini tanlashda darsning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari, darsda o'rganiladigan mavzu mazmuni, o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajalari, ko'rsatmali qurollarning mavjudligi, oz-ko'pligi singari masalalar hisobga olinadi³. O. Mo'minovning fikricha, ta'lim metodlari o'yinlarning yaxshisi yoki yomoni bo'lmaydi, balki o'rganilayotgan mavzu mazmuniga muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin⁴. Shu sababli ta'lim metodlarini tanlashda o'rganiladigan mavzu mazmuniga e'tibor berish zarur. O'quvchilar ijodiy faoliyatini o'stirishda o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari bor. O'yin jarayonida o'quvchilar turli holatlarga duch kelib, vaziyatdan chiqish yo'llarini o'ylaydilar, mulohaza qiladilar va ijodiy fikrlashga majbur bo'ladilar. Buning natijasida qandaydir o'quv topshirigi bajariladi. Bu vaziyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantiradi, o'z harakatlarini asoslashga undaydi, bularning natijasida hayotda uchraydigan turli qiyinchiliklarni bartaraf etishga odatlantiriladi.

Psixolog olim M. S. Kaganning inson faoliyati haqidagi qarashlariga asoslanib, o'quvchilarning o'yin faoliyatida quyidagi tarkibiy qismlar mavjudligi aniqlangan:

- o'yinning asosiy maqsadi;
- mavzuning mazmunga muvofiqligi;
- o'quvchilarning erkin faoliyati;
- o'yinni baholash.

Ya'ni, o'yin o'rganiladigan mavzu va o'quvchilar faoliyatiga moslashtiriladi. Shundagina o'quvchilar o'yinga va bu orqali bilimlarni o'zlashtirishga qiziqadilar. qiziqish esa faoliyatni os

³ Элконин Д. Б. Психология игры М Педагогика 1988 с 304

⁴ Сорокин Н. А. Дидактика – М Просвещение с 222

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xoriji tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117 son qarori
2. 2021-yil 6-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida chet tillarini o‘qitishni takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektordagi nutqidan
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati T; Fan 1976’632
4. Ensiklopedik lug‘at T. 1990, 466b
5. Pedagogik atamalar lug‘ati T; 2008 20b
6. Derbremicker, A. Besh daqiqalik o‘yinlar / A. Derbarec // English - 2005 - № 9. - P.35
7. Бэспалко В П Педагогика и прогрессивные технологии обучения М 1195 с 78
8. Газман О С Роль игры в формировании личности школьника М 1992 С 60
9. Elkonin “O‘yin psixologiyasi” M; Akademiya nashriyoti, 2007.-89b

XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BOSHLARIDA QO'QON XONLIGIDA DEVONDAGI HUJJATLARI TAVSIFI YORITILGAN MANBALAR

Mamayusufov Ma'murjon

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6063904>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr boshlarida Qo'qon xonligida yaratilgan tarixiy asarlar va devonxona ishlari haqida ma'lumot berilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, Qo'qon xonligi devonxona hujjatlari qo'lyozma matnlari, ularning yozilish uslubi, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik fani nuqtai nazardan tadqiq etilishini yoritib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Devonxona, devon, rasmiy hujjatlar, farmon, madaniyat vaqfnoma, "Tarixi jahonnamoyi", "Mukammal tarixi Farg'ona", "Muntaxab at tavorix".

Qo'qon xonligining XVIII-XIX asrlar 1-yarmida kechgan madaniy hayotida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar va rivojlanishlar yuz berib borganligi ma'lum. XIX asrda Qo'qon xonligida tarixnavislik ham bir muncha rivojlanib borgan. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilindi va yangi kitoblar yaratiladi. Bu yangi asarlarning o'ziga xos xususiyatlari ham bor edi. Ularning ayrimlari she'riy yoki qisman she'riy yo'ld a yozildi. Bu esa qo'qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay, o'zl ariham she'riyatda qalam tebratganliklaridan dalolat beradi.

Masalan, "Tarixi jahonnamoyi" (Junayd Mullo Avazmuhammad Mullo Ro'zi Muhammad so'fi o'g'li), "Shohnoma" (Abdulkarim Fazliy Namangoniy), "Shohnom ayi Umarxoniy" (Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy. "Muntaxab at tavorix" (Xo'ja Muhammad Hakimxon to'ra bin Sayid Ma'sumxon) "Tarixi Shohruxiy" ("Tarixi sayyidi Xudoyorxon", Mullo Niyoz muhammad Xo'qandiy Niyoziy bin Mullo bin Ashur Muhammad Xo'qandiy), "Tarixi jadidai Toshkand va yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

XIX asr boshlarida shakllangan Qo'qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" ha rostan ham tarix zarvaraqlari ko'plab voqeliklarni o'zida mujassamlashtirgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishilgandan so'ng esa barcha sohalar qatorida qadimiy qo'lyozma va toshbosma asarlarni ilmiy tadqiq etish, asrab avaylash, tarixda mavjud xonliklar va amirliklarga xos davlat xujjatlarni ilmiy o'rganish, mazkur qo'lyozmalarni joriy alifboga ko'chirib, o'tmishda yashagan ijodkor va olimlarning ijod namunalaridan bahra olish imkoniyati yaratilib berildi. Bunda Prezident SH.M.Mirziyoyevning "...Avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod

etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zdatutilgan"¹, degan so'zlari dasturulamal bo'lib kelmoqda.

O'zbek davlatchiligining uzviy bo'lagi bo'lgan Qo'qon xonligi va uning ma'muriy boshqaruv tizimi va devonxona ish yuritish tartibini ushbu tarixiy qo'lyozma va manbalar asosida aniq dalillarga tayangan holda ochib berish, tahlil qilish matnshunoslik, qolaversa tarix fani fani uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Bunday tarixchilar va tadqiqotchilar qatorida XX asr boshlarigacha ijod qilgan va tarixiy asarlar yozib qoldirgan bir qator Turkiston va rus tarixchilarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Jumladan xonlik hududida istiqomat qilgan tarixchi olimlar: Muhammad Fozilbek ibn Qozi Muhammad va uning "Mukammal tarixi Farg'ona" asari, Ibrat va uning "Farg'ona tarixi" asari "Muntaxab at tavorix" asarlari biz uchun original manba hisoblangan. Qo'qon xonligi tarixini yoritib beruvchi tarixiy, badiiy asar hisoblanuvchi "Muntaxab at-tavorix"ni keltirib o'tishimiz mumkin. Bu asar orqali bizga Qo'qon xonligi tarixi madaniyati davlat boshqaruvi haqida bir qamcha muhim ma'lumotlar yetib kelgan. Muhammad Fozilbek asari o'zbek tilida bo'lib kirish qismida muallif shunday yozadi: "Farg'ona muzofotining dor as-saltanati, Xo'qand shahriga ibtidoi binosi va obodonligidan toki, o'tgan xonlarini tarojim ahvoli va tavorixi va voqei ayom inqilobi asru xonlari tarixi vafotlari va ayyomi hayotlari va muddati saltanatlari va futuxotlari va mobaynlaridagi jangu jilod va xusumatlarini bar sabili ajmol qalamning ro'y tahririg'a idqom, xususan, janobi amir ul-umaro shahanshoi masnadrishin, a'zami salotin Norbo'taxon zamonidan tortib to janobi Sayid Muhammad Xudoyorxon asrig'acha vujudg'a kelgan ajoyib sho'rish va fitnalarning, voqea va jangu inqilobi, zamona va havodisi davronni ko'zi bilan ko'rgan va donishli mo'tamad odamlar o'z vaqtlarida tahlil qilg'on kitob va xututlardan intihob aylab, baroyi yoddoshti ahvoli xavonini Xo'qand bar sabili tahqiq tahrir qilindi.

Markaziy boshqaruv tizimida dargoh va devon faoliyatining ahamiyati. O'rta Osiyo xonliklari markaziy boshqaruv tizimi dargoh va devondan tashkil topgan. Dargoh – Hukmdorning eng oliy davlat idorasi, devonlar bo'lsa ma'lum bir doiradagi vazifalarni boshqaruvchi vazirliklar hisoblangan. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar davriga kelib, bunday boshqaruv tizimi tubdan o'zgardi. Azamat Ziyoning fikricha, bu davrda – mazkur tizim (dargoh va devonlar) tugatilgan va ijroiya vazifalari to'g'ridan-to'g'ri saroydagi u yoki bu lavozimda yoki biron bir arbob faoliyatida birlashtirilgan|| edi. Demak, turli amaldorlar faoliyat yuritgan maxsus vazirliklar

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4 август.

zimmasidagi vazifalarni birgina shaxsga yuklatish bilan devonlar faoliyatiga chek qo'yilgan. Barchamizga ayonki, hamma zamonlarda davlat boshqaruvida markaziy idoralar asosiy rol ni bajargan. Shu ma'noda Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimi o'ziga xos jihatlari bilan ham ajralib turar edi.

O'rta Osiyoni Arab xalifaligi egallagandan so'ng mintaqada arab grafik yozuvidan foydalanila boshlaydi. Davlat boshqaruvidagi islohatlar mobaynida saroy va shaxsiy arxivlar, idoralarda hujjatlarni yig'ish va saqlash ishlari devon faoliyatida yuritiladi. "Devon" atamasi hujjatlarni to'plash ma'nosida ham ishlatilindi. Devonlar saroy qoshida joylashgan bo'lib, ko'pincha hujjatlar ushbu devonlar ustidan nazorat qiluvchi vazirda saqlangan. Hukumatning ish yuritish va yig'ma jildlarni devonda to'plash ishlariga nisbatan – "fixrist" atamasi ishlatigan.

bo'lib qolmasdan, balki u bolalami matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi: 1) pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash; 2) matematika yo'li, ya'ni bolalami eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo, natural son hamda geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash.

Matematika so'zi grekcha "mathema" so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi "fanlarni bilish" demakdir. Matematika fanining o'rganadigan obyekti fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga oigan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir. Bu matematik bilimlar tizimi ma'lum usullari (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi. "Metodika" grekcha so'z bo'lib, "metod" degani "yo'l" ma'nosini anglatadi. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tatbiq qiladi. O'qitishda yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i zarur. Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat: 1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi). 2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'limning mazmuni o'quvchilarning aniq bilim bilish imkoniyatlariga mos keladi. 3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak, ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? 4. O'qitish vositalari - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv- texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish). 5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish):

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimlilikini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek, o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki, o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir: 1) o'qitish asosi bo'lgan matematika bilan; 2) pedagogika; 3) psixologiya; 4) boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat). Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish kursi o'quv predmetiga aylangan. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari: a) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi; b) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi; d) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi; e) ta'limni insonparvarlashtirishi; . f) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati, bir-biriga hunnati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib berishi; g) o'qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishdan iborat. Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, kasb-hunarga qiziqtirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat. Shunday qilib, boshqa har qanday o'quv fani kabi matematika boshlang'ich kursi o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi: 1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi; 2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi; 3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi. Tayyorlov guruhlarida matematikani o'rgatish metodikasi Bolalar bog'chasining tayyorlov guruhi bir haftada ikkita, bir yilda 72-74 mashg'ulot o'tkazish rejalashtiriladi. Mashg'ulotlar sentabrdan may oyining oxirigacha har biri 25-30 minutdan o'tkaziladi. Mashg'ulotlarda didaktik o'yinlar, ko'rgazmali materiallardan keng foydalaniladi. Bolalar mashg'ulotlarga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim: 1. Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtirib olishi. 2. Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlash. 3. Bolalar faoliyatini

o'zgartirib turishga va ulaming qiziqishlariga e'tibor qilish. . . 4. Mashg'ulot o'rtasida harakatli o'yinlar o'tkazishni rejalashtirish. 5. Mashg'ulot davomida bolalaming mustaqil xulosa chiqarishlariga erishish. - 6. Bolalaming xilma-xil javoblarini rag'batlantirish. Dastur materialini mashg'ulotlarga taqsimlashda bolalaming bilim va ko'nikmalariga, ulaming tayyorgarligiga e'tibor berish lozim. Maxsus atamalarni to'g'ri qo'llay bilish katta ahamiyatga ega. M~ salan, son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubonnaslik kerak. «Qaysi son katta, qaysinisi kichik" deb so'raladi (qaysi raqam ,katta deyish mumkin emas). Mashg'ulotda hamma bolalaming faol ishtiroketishlariga erishish maqsadida har bir bolaning oldida tarqatma materiallar bilan bir qatorda ko'rgazmalar bo'lishi tavsiya etiladi. 26 Bunda hamma bolalar o'rtoqlarini javobini diqqat bilan eshitishga harakat qiladilar, intizom buzilmaydi, shu bilan bolalami test sinovlariga tayyorgarlik ham hisobga olinishi lozim. o dan 9 gacha raqamlar bilan tanishtirish Raqam - sonning shartli belgisidir. Bolalarga sonni tushuntirishda raqam qO'shimcha, yordamchi bosqichdir. Bolalami raqamlami yozishga o'rgatilmaydi, faqat bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Bolalar har bir raqam qaysi sonning belgisi ekanligini ajrata bilishlari lozim. Harnrnasi bo'lib 10 ta raqam bor: 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9. 10 raqami yo'q. 10 soni ikkita raqam: 1 va 0 bilan belgilanadi. Bitta mashg'ulotda bitta yoki ikkita raqam bilan tanishtirish mumkin. Masalan "1" raqarni bilan tanishtirishda tarbiyachi sanoq kartochkasiga bitta o'yinchoq qo'yadi, ulaming oldiga 1 ta doirali kartochkani qo'yadi. 2 ta bolani chaqirib, biriga bir marta sakrash, ikkinchisiga bir marta stolga taqqillatishni taklif etadi. Bolalar sanab, harnrnasi bittadan degan xulosa qiladilar. Keyin "1" raqamini ko'rsatib bu sonni ko'rsatuvchi shartli belgidir, har bir son o'z belgisiga egadir deb tushchuntiradi. Bolalar bog'chasi bilan boshlang'ich sinf orasida uzviylik shundan iboratki bular bir-birini to'ldirib boradi. Bolalar ustma-ust, tagma-tag terib qO'yish, sanash orqali to'plamlaming teng, notengligini aniqlaydilar. Tenglik - notenglik munosabatlarini aniqlashda ishora belgilari simvollaridan foydalaniladi. Qaysi qatorda ko'proq, qaysi qatorda kamroq? 5 soni 6 dan kamroq .

I-IV sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo'yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog'liq. Shuning uchun I-sinf o'quvchilarining bilimlarini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan o'quvchilarning bilimlarini

yaxshi biladigan o'quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O'qituvchi quyidagi tartibda o'quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qO'shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?

Bolalarni o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi. V-XI sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o'qitiladi. Demak, boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi. Boshlang'ich matematikaning tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya element material bilan qo'shib o'qitiladi.
2. Boshlang'ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan, oldin I-o'nlikni raqamlash o'qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko'p xonali sonlar ichida. Bularni o'qitish bilan birga raqamlash, miqdorlar, kasrlar, algebraik va geometrik materiallar qo'shib o'qitiladi.
3. Nazariya va amaliyot masal'alari o'zaro bog'langan xarakterga ega.
4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy bog'lanishlarni ochish kursd~ o'zaro bog'langan.
5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi.

Masalan, arifmetik amallarni o'qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin amalning xossalari, keyin komponentlar orasidagi bog'lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog'lanish beriladi.

6. Asosiy tushunchalar va natijaviy tushunchalar o'zaro bog'lanishda berilgan. Masalan, qo'shish asosida ko'paytirish keltirib chiqarilgan. Boshlang'ich matematika kursi o'z tuzilishi bo'yicha o'z ichiga olgan, arifmetik, algebraik va geometrik materialdan iborat qismlarni boshlang'ich matematika kursida konsentrik joylashuvi saqlanadi.

Ammo, amaldagi dasturda konsentrlar soni kamaytirilgan: o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar. Shuni ham aytish kerak, material shunday guruhlashganki, unda o'zaro bog'langan tushunchalar, amallar, masalalami qarash vaqt jihatdan yaqinlashtirilgan. Arifmetik amallarning xossalari va mos hisoblash usullarini o'rganish bilan bir vaqtda arifmetik amallar natijalari bilan komponentalari orasidagi bog'lanishlar ochib beriladi. (Masalan, agar yig'indidan qo'shiluvchilardan biri ayrilsa, ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'ladi.) Komponentlaridan birining o'zgarishi bilan arifmetik amallar natijalarining o'zgarishi kuzatiladi.

Algebra elementlarini kiritish, chuqur, tushunilgan va umumlashgan o'zlashtirish maqsadlariga javob beradi: tenglik, tengsizlik, tenglama, o'zgaruvchi tushunchalari konkret asosda ochib beriladi. I-sinf dan boshlab sonli tengliklar va tengsizliklar ($4=4$, $6=1+5$, $25,8-3 < 8-2$ va hokazo) qaraladi. Ularni o'rganish arifmetik materialni o'rganish bilan bog'lanadi va uni chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov M., Ibragimov P., Abdurahmonova N., Jumayev M.E. Birinchi sinf
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. - T.: "O'qituvchi"
3. Bikboyeva N.U., Yangiboyeva E.Ya. Uchinchi sinf matematika darsligi.
4. Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda fakultatif darslarni tashkil etish.
5. www.google.uz
6. www.ziynet.uz

GEOGRAFIYA FANINING TARIXI VA HOZIRGI DAVRDAGI RIVOJLANTIRISHI

Ismoilova Shoxidaxon

**Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 16-umumiy o'rta ta'lim
maktabining geografiya sinf o'qituvchisi**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6299747>

Annotatsiya: Geografiya fanlari sistemasi 3 asosiy tarmoqqa bo'linadi: tabiiy, ya'ni tabiiy geografik fanlar ularga tabiiy geografiya (umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik va paleogeografiyani o'z ichiga oladi), geomorfologiya, iqlimshunoslik, quruqlik gidrologiyasi, okeanologiya, glyatsiologiya, geokriologiya, tuproklar Geografiyasi va biogeografiya kiradi; ijtimoiy va iqtisodiy geografik fanlar umumiy va regional iqtisodiy Geografiya, xo'jalik tarmoqlari Geografiyasi sanoat Geografiyasi, qishloq xo'jaligi Geografiyasi, transport Geografiyasi va, aholi Geografiyasi, siyosiy Geografiya; haritagrafiya. Undan tashqari Geografiyaga mamlakatshunoslik, tibbiy Geografiya, rekreatsiya va harbiy Geografiyaham kiradi. Keyingi yillarda, koinotni o'rganish rivojlanishi bilan selenografiya (Oy Geografiyasi), kosmos yershunosligi kabi sohalar ham vujudga keldi. Yer sun'iy yo'ldoshlari va kosmik kemadan turib Yer yuzasining suratini olish va haritasini tuzish usullari ham yaratildi.

Kalit so'zlar: Geografiya, iqlim, yer, rivojlanish, mamlakat, harita, koinot, selenografiya, Aristotel, tuproq.

HISTORY AND MODERN DEVELOPMENT OF GEOGRAPHY

Ismoilova Shoxidaxon

School №16, Qo'shtepa district, Fargana region

Abstract: The system of geographical sciences is divided into three main branches: natural, natural geographical sciences, which include natural geography (general geology, landscape and paleogeography), geomorphology, climatology, terrestrial hydrology, oceanology, glaciology, geography and geocryology; social and economic geography general and regional economic geography, geography of economic sectors, industrial geography, agricultural geography, transport geography and, population geography, political geography; cartography. Geography also includes Geography, Medical Geography, Recreation and Military Geography. In the following years, with the development of space exploration, fields such as selenography (lunar geography) and space geology also emerged. Methods for photographing and mapping the Earth's surface using satellites and spacecraft have also been developed.

Keywords: Geography, climate, land, development, country, map, universe, selenography, Aristotle.

Geografiya eng qadimgi va hamisha navqiron fanlardan biri. Geografik kashfiyotlar, g'oya va bilimlarning rivojlanish xususiyatlariga asoslanib, bu fanning tarixida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin.

Qadimgi yoki antik davr bosqichi. Ibtidoiy odamlarning o'zi yashab turgan joyni o'rganish, yashash uchun qulay, tabiiy resurslarga boy joylarni topish va tasvirlashga bo'lgan intilishlari asnosida dastlabki Geografik bilimlar to'planib borgan. Er.avv. 2-ming yillikda finikiyaliklar O'rta dengizdan Gibraltar bo'g'izi orqali suzib o'tib, Afrika qirg'oqlari bo'ylab Hindistongacha suzib borganlar. Shu paytdan Osiyo va Yevropa nomlari paydo bo'lgan.

Bu davrda yunonlar va rimliklar o'sha paytda ma'lum bo'lgan hududlarni tasvirlab yozish bilan birga xaritalarini ham tuzdilar. Gomer er.avv.XII asrda O'rta dengiz va uning atrofini tasvirlovchi dunyo xaritasini tuzdi. Pifagorning shogirdlari er.avv. VI asrda Yerning sharsimonligini aytdilar. Aristotel, er.avv.IV asrda, Yerning sharsimonligini, issiqlik mintaqalari mavjudligini mantiqiy jihatdan isbotladi. Olamning markazida Yer turadi degan geotsentrik nazariyani ilgari surdi. Eratosfen er.avv. III asrda birinchi bo'lib Yerning kattaligini o'lchadi va "Geografika" nomli kitobini yozib, geografiya fanining mustaqil fan bo'lib chiqishiga asos soldi. Eramizning II asrida Ptolemey 8 jildlik "Geografiya" asarini yozdi va xaritalarni tuzishda kartograf ya proyeksiyalar va daraja to'rini ixtiro qildi, dastlabki "Atlas" ni yaratdi. Shu davrda Strabon ham 17 jilddan iborat atlasni yozgan.

Bu bosqichning asosiy natijalari: geografiya fani vujudga keldi va "geografiya" nomli kitoblar yozildi, dunyo xaritalari tuzildi, geografik koordinatalar va daraja to'ri ixtiro qilindi, Yerning sharsimonligi mantiqiy isbotlandi va o'lchamlari aniqlandi.

\O'rta asrlar bosqichi. Bu davrda geografiya, umuman, ilm-fan, asosan Sharqda, xususan, O'rta Osiyo, Misr, Eronda rivojlandi. Geografiya fani, asosan o'lkashunoslik, kartografiya, geodeziya yo'nalishida rivojlandi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy IX asrda Yerning sharsimon ekanligini isbotlab, uning o'lchamlarini nisbatan aniq o'lchadi. "Surat-al-Arz" nomli kitob yozib, Sharq geografiyasiga asos soldi.

Geografiya fanining rivojida Abu Rayhon Beruniyning xizmati beqiyos. Uning geografiyaga oid 22 ta asari bo'lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. U yasagan globus esa Yerning

sharsimonligini isbotlash va tushuntirishda, Shimoliy yarimshar tabiatini o'rganishda tengi yo'q manba bo'lgan. U yunon va rim olimlaridan farq qilib olamning geliotsentrik tuzilishi nazariyasini rivojlantirishga hissa qo'shgan.

Abdurazzoq Samarqandiy Hindistonga sayohat qilib, Eron, Pokiston, Arabiston dengizi haqida boy ma'lumotlar to'pladi. Ahmad Farg'oniy astronomiya, iqlimshunoslik gidrologiya fanlariga oid asarlar yaratdi. U Nil daryosining suv sarfini o'lchaydigan "Nilometr" asbobini yaratib, daryolarning suv sarfini o'lchash va unga bog'liq ishlarni to'g'ri rejalashtirishga asos yaratdi. Umar Xayyom tomonidan ko'plab xaritalar tuzildi. Yoqut Hamaviy geografik lug'at – o'sha davrdagi geografik bilimlar ensiklopediyasini tuzdi. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asari orqali geografiya faniga katta hissa qo'shdi.

Bu davrda yevropaliklar ham sayohatlar uyushtirib, geografik bilimlarning boyishiga sezilarli hissa qo'shdilar. 982-yil Erik Rauda Grenlandiyani, uning o'g'li Leyve Eriksson esa Shimoliy Amerikaning shimoli-sharqiy sohillarini o'rgandi. 1271–1295-yillarda venetsiyalik Marko Polo Xitoyga safar uyushtiradi va uning ma'lumotlari Ptolemeyning xaritasida tasvirlanmagan joylarni to'ldiradi. 1466–1472-yillarda A. Nikitin Hindistonga sayohat qilib "Uch dengiz osha sayohat" asarini yozadi.

Bosqichning asosiy natijalari: Yerning shakli va o'lchamlari aniqroq o'lchandi, geodeziya, kartografiya, gidrologiya, iqlimshunoslik fanlari shakllandi va rivojlandi, o'lkashunoslik va mamlakatshunoslikka bag'ishlangan yirik asarlar yozildi, Sharq, xususan, O'rta Osiyo geografiyasiga asos solindi.

Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi. XV asrning 2-yarmiga kelib, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi. Natijada "Buyuk geografik kashfiyotlar" qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar asosan 3 ta yo'nalishda olib borildi: 1) janubiy – Afrika bo'ylab; 2) g'arbiy – Atlantika okeani orqali; 3) shimoliy – Yevrosiyaning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab.

Ushbu bosqich 1492-yil ispaniyalik Xristofor Kolumbning Amerikaga 1-sayohatidan boshlanadi. X.Kolumb Amerikaga jami 4 marta borib, har safar yangi-yangi orollarni kashf etishiga qaramay, u yerlarni Hindiston emasligini bilmagan. 1499–1501-yillari Amerigo Vespuchchi Janubiy Amerika qirg'oqlarini tekshirib, bu yerlar Hindiston emas, yangi yerlar ekanligini yozadi. 1507-yilda M.Valdzemuller "Kosmografiyaga kirish" nomli asarida bu yangi yerlarni "Terra Amerika" deb nomlaydi. Keyinchalik Merkator o'zi tuzgan xaritalarida har ikki materikni ham shu nom bilan ataydi.

1498-yili portugaliyalik Vasko da Gama ekspeditsiyasi Afrikani aylanib o'tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. 1519–1521-yillarda ispaniyalik Fernan Magellan ekspeditsiyasi dunyo bo'ylab sayohatini amalga oshirdi. Natijada Yerning sharsimonligi amalda isbotlandi va Dunyo okeanining yaxlitligi ma'lum bo'ldi.

XVI asrda Angliya va Gollandiyalik sayyohlar ham Hindiston va Xitoyga dengiz yo'lini ochish maqsadida shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy yo'nalishlarda ekspeditsiyalar o'tkazdilar. Natijada Shimoliy Amerika va Yevrosiyaning shimoliy qirg'oqlari va ko'plab orollar o'rganildi. Lekin dengiz yo'lini ochishga muvaffaq bo'linmadi. Shu ningdek, Amerikaning ichki o'lkalarini, ya'ni angliyaliklar – AQSH hududini, fransuzlar – Kanada hududini tekshirdilar.

XVI asrning oxirlaridan boshlab Janubiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya hududlari ingliz va gollandlar tomonidan tekshirilib, zabt etila boshlandi. 1605-yilda golland sayyohi Yanszon Avstraliya materigini kashf qildi. So'ngra 1641–1643-yillarda A. Tasman materikni aylanib chiqdi.

Shu davrda rus sayyohlari Sibir, Uzoq Sharq, Yevrosiyaning shimoliy va shimoli-sharqiy qirg'oqlarini, Shimoliy Amerikaning shimoli-g'arbiy qismigacha bo'lgan hududlarni o'rganib, xaritaga tushirdilar va tasvirlab yozdilar.

Yuqorida aytilgan va boshqa o'nlab ekspeditsiyalarda to'plangan ma'lumotlar geografik bilimlarning kengayishiga va takomillashuviga olib keldi. 1544-yilda S. Myunsterning "Kosmografiya", 1650-yili golland olimi B.Vareniusning "Umumiy geografiya" nomli asari bosilib chiqdi.

G.Merkator xaritalarning matematik asosini, kartografik proyeksiyalarni ishlab chiqdi. Bularning bari ilmiy geografiya rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

Bu bosqichning asosiy natijalari: Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya materiklari kashf etildi; Yerning sharsimonligi va Dunyo okeanining uzluksiz, yaxlitligi amalda isbotlandi; ilgari noma'lum bo'lgan Tinch okeanining mavjudligi va uning eng katta okean ekanligi, Yer yuzining katta qismi quruqlik emas, suvlikdan iboratligi aniqlandi.

Ilmiy geografik ishlar bosqichi. XVII asrga kelib fanlarning rivojlanishida keskin ildamlash ro'y berdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bunday ekspeditsiyalardan eng muhimlari: 1725–1741-yillarda V.Bering va A.Chirikov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi, 1785–1788-yillarda J.Laperuz rahbarligidagi fransuz ekspeditsiyasi, 1768–1779-yillarda J.Kuk boshchiligidagi 3 marotaba dunyo bo'ylab ingliz ekspeditsiyasi. Bu ekspeditsiyalar tomonidan Kuril orollari, Kamchatka va Chukotka yarimorollari, Osiyoning shimoliy qirg'oqlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ichki qismlari,

Avstraliyaning sharqiy sohillari, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya, Janubiy Georgiya, Jamiyat, Gavayi, Kuk va boshqa orollar o'rganildi.

Yerning ichki qismlari, tektonik harakatlar haqidagi bilimlarning to'planishi bilan tabiiy geografiyadan geologiya ajralib chiqdi, Yer yuzasi relyef, yer usti va osti suvlari, iqlim, shamollar, o'simliklar haqidagi bilimlarning kengayishi esa geomorfologiya, gidrologiya, meteorologiya va geobotanika fanlarining mustaqil fan darajasida rivojlanishiga olib keldi. Ushbu bosqichda ilmiy ishlar, ko'pincha o'rganilgan yerlarning geografik tavsifga bag'ishlangan bo'lib, yangi kitoblar va xaritalar ishlangan.

Bu bosqichda bir qancha nazariya va gipotezalar, kitoblar yaratildi. Bular: Kant-Laplasning kosmogonik nazariyasi; Pallasning geologik qatlamlarning yoshi haqidagi nazariyasi; Leybnitsning tog' hosil bo'lishida vulqon harakatlari gipotezasi; M. Lomonosovning "Yer qatlamlari haqida", "Atmosfera hodisalari haqida" kitoblari, Kantning "Tabiiy geografiyadan ma'ruzalar" kitobi va boshqalar.

Bu bosqichning asosiy natijalari: Yer yuzining turli qismlari ilmiy o'rganildi; fanda yangi nazariya va gipotezalar yaratildi; kartografik

proyektsiyalar va relyefni tasvirlashning yangi usullari ixtiro qilindi; yirik asarlar va kitoblar yaratildi, geografiya fanining tarkibida bir qancha mustaqil fanlar rivojlandi.

XIX asr va XX asrning 1-yarmida geografiyaning rivojlanishi. Bu bosqichga kelib milliy geografiya jamiyatlari tashkil etilishi boshlandi. Jumladan, Fransiya (1821), Germaniya (1828), Buyuk Britaniya (1830), Rossiya (1845), Turkistonda esa 1897-yilda tuzilgan. Ko'pgina davlatlar tomonidan yirik ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalari uyushtirildi. 1821-yil F.F.Bellinsgauzen va M.P.Lazarev tomonidan Antarktida kashf etildi. 1823–1825-yillarda O.E.Kotsebu Dunyo okeani bo'ylab ekspeditsiyada marjon orollarining kelib chiqishini o'rgandi, fizik E.Lens esa chuqurlikni o'lchash uchun birinchi bor batometrni qo'lladi. D.Livingston Afrikaning ichki qismlarini o'rgandi. P.P.Semyonov-Tyanshanskiy boshchiligida O'rta Osiyoning ichki hududlari o'rganildi. R.Piri 1909-yilda Shimoliy qutbni, R.Amundsen esa 1911-yilda Janubiy qutbni zabt etdi.

A.Gumboldt Yevropa, Amerika, Osiyoga ekspeditsiya uyushtirib, juda ko'p ma'lumotlar to'pladi. O'simliklarning kenglik zonalligi va balandlik mintaqalanishi qonuniyatini aniqladi. Mazkur ma'lumotlarni umumlashtirgan bir necha jildlik "Tabiat manzarasi", "Kosmos" kabi yirik asarlarini yozdi. Gumboldt tabiatni bir butun, qat'iy qonuniyatli va uzluksiz rivojlanadigan tizim sifatida qarab yangi geografiyani yaratdi. Bu geografiyaning vazifasi tabiatni rivojlanishda va bir butun, yaxlit hosila sifatida o'rganish, tabiatdagi qonuniyatlarni aniqlash, jism va hodisalar orasidagi aloqadorliklarni, o'zaro ta'sir va bog'liqliklarni ochish va boshqalardir.

Ch.Layel tomonidan yer po'stining rivojlanish nazariyasi ishlab chiqildi. V.V.Dokuchayev tomonidan tabiat zonalligi ta'limoti, A.A.Grigorev tomonidan geografik qobiq ta'limoti, V.A.Vernadskiy tomonidan biosfera ta'limoti yaratildi.

Bu bosqichning asosiy natijalari: geografiya jamiyatlari tuzildi. Shimoliy va Janubiy qutblar zabt etildi va dunyo xaritasida noma'lum bo'lgan hududlar qolmadi. Ilmiy geografiya vujudga keldi. Okeanograf ya fani shakllandi. Meteorologik va gidrologik stansiyalar bunyod etildi. Atmosfera va okeandagi harakatlarning mohiyati ochib berildi. Yer po'stining

rivojlanish nazariyasi ishlab chiqildi. Bir necha ta'limotlar: tabiat zonalligi, geografik qobiq, biosfera ta'limotlari yaratildi.

Hozirgi zamon bosqichi. Geografiya fan-texnika inqilobi ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Bu bosqichda geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: geografik tadqiqotlarda modellashtirish va tajriba usullari, geografik axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari, kosmik usullar keng qo'llanilmoqda. Kosmik usullar yordamida aylanasi tuzilmalar, atmosfera harakatlari, okean suvi aylanma harakati va chuqurdagi suvlarning ko'tarilish jarayonlari aniqlandi. Insonning tabiatga ta'siri kuchayib, hatto geografik qobiq doirasidan tashqariga chiqib ketdi. Shu munosabat bilan tadqiqotlar lokal (mahalliy) muammolar bilan bir paytda global muammolarga ham o'z diqqatini qaratmoqda.

Gidrologiya. O'rta Osiyo gidrologiyasi bilan E. M. Oldekop va L. K. Davidovlar, 1950—70 yillarda tog' gidrologiyasi bilan V. L. Shuls shug'ullandi. U O'rta Osiyoni geografik-gidrologik tamoyillar asosida rayonlashtirdi va o'lka suv oqimining asosiy qonuniyatlarini bayon etdi. V. L. Shulsning rahbarligida L. I. Shalatova, I. R. Alimuhamedov gidrolog tadqiqotchilar yetishib chikdi.

O'rta Osiyo gidrologiyasi bo'yicha ilmiy ishlar O. P. Shcheglova va uning shogirdlari G. Ye. Glazirin, A. R. Rasulov, R. S. Saidova, F. Hikmatov va b.ning faoliyati bilan bog'liq.

Respublikada sel oqimlarini geografik va gidrologik o'rganish bilan F. K. Kocherga, P. M. Karpov, T. Mustafaqulov, R. G. Vafin, V. P. Pushkarenko, S. To'laganov va A. Saidovlar shug'ullandilar.

Gidrologik tadqiqotlar majmuida daryo o'zanidagi dinamik jarayonlarni o'rganish S. T. Altunin va A. M. Muhamedov rahbarligida amalga oshirildi.

1960-yillardan R. A. Alimov, A. 3. Zohidov, V. P. Svetitskiy, N. I. Zudina va b. obikor yerlar suv balansi va tuz rejimini o'rganish bo'iicha ishlar olib bordilar.

Xo'jalikka xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan gidrologik bashorat bo'iicha o'tkazilgan tadqiqotlar P. M. Mashukov va 3. V. Jorjiolar nomi bilan bog'liq. Gidrologik jarayonlarni modellashtirish muammolari bo'yicha Yu.N. Ivanov, Yu. M. Denisovning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Obikor dehqonchilik bilan bog'liq gidrologiya muammolari ham olimlarning diqqat markazida bo'ldi (G. N. Trofimov, N. K. Lukina, Ye. M. Vidineeva, Q. Domlajonov va b.).

N. L. Korjenevskiy 1930 yil O'rta Osiyo muzliklarining katalogi (jadvali)ni yaratdi va ko'pgina tog' muzliklarini birinchi bo'lib tavsifladi. Keyinchalik

O'zbekistonda G. Ye. Glazirin, V. G. Konovalov, V. F. Suslov, A. S. Shchetinnikov, V. Nozdryuxin, A. A. Kreyter, M. A. Nosirov, A. Akbarov kabi glyatsiolog mutaxassislar yetishib chiqdi.

O'rta Osiyo ko'llarini o'rganishga olimlardan N. L. Korjenevskiy, L. A. Molchanov, N. G. Mallitskiy, A.M. Nikitin va b. hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda gidrometeorologik tadqiqotlarning asosiy markazlari V.A. Bugayev nomidagi O'rta Osiyo regional gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituta (Toshkent), O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Geologiya va geofizika hamda Suv muammolari institutlaridir.

Ilmiy va amaliy gidrologik tadqiqotlar asosan gidrometriya, suv eroziyasi va o'zan jarayonlarini o'rganish (A. R. Rasulov, T. Jo'rayev, S. R. Saidova, M. Mirziyotov, F. Xikmatov), gidrokimyo (E. Chembarisov, K. Domlajonov), gidroekologiya (A. Nazarov, A. Abdurahmonov, 3. Sirliboyeva), gidromelioratsiya (Sh. Yunusov, E. Jo'rabekov) va irrigatsiya tarixi (A. Razzoqov), suv resurslarini o'rganish (Sh. Murodov, S. Karimov, U. Tursunov), muzlikshunoslik (M. A. Nosirov, A. Akbarov), ko'lishunoslik (O. Nuriddinov) kabi yo'nalishlar bo'yicha muvaffaqiyatli davom etmoqda.

Tuproqlar geografiyasi. 1920 yil O'rta Osiyo universiteti tarkibidagi Tuproqshunoslik va geobotanika institutida tuproqshunos N. A. Dimo rahbarligida tuproq qoplami geografik landshaftlarning tarkibiy qismi va ko'zgusi, ayni vaqtda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosi hamda resursi sifatida o'rganildi.

Regional tuproqshunoslikning xilmaxil muammolari ustida A. M. Rasulov, A. Maksudov, H. Maqsudov va A. Ne'matov, J. S. Sattorov va L. Tursunovlar tadqiqotlar olib borgan.

O'zbekistonda geografik tuproqshunoslik O'rta Osiyo tuproqlarini geografik, ekologik va geokimyoviy jihatdan o'rganish asosida rivojlandi (O'. Abdunazarov, H. Ma'sudov, L. Kamolov va b.).

Biogeografiya. Biogeografik tadqiqotlar maktabining asoschilari zoolog D. N. Kashkarov bilan botanik Ye. P. Korovindir .

O'zbekistonda biogeografik tadqiqotlar ayni vaktida ularning ikki asosiy tarmog'i — botanik geografiya va zoogeografiya yo'nalishlarida ham shakllandi. 1920—40 yillarda o'lka o'simliklari va hayvonoti geografik-ekologik o'rganildi (M. P. Popov, R. I. Abolin, Ye. P. Korovin, P. A. Baranov, I. A. Raykova, M. M. Sovetkina, I. I. Granitov).

O'zbekistonda botanik geografiyaning rivojlanishi va milliy ilmiy kadrlarni yetishtirishda akademik K. 3. Zokirov va O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi I. I. Granitov salmoqli hissa qo'shdilar.

1950-yillardan boshlab o'simliklar geografiyasi, ekologiyasi va fiziologiyasi bo'yicha o'zbek botaniklaridan — M. M. Orifxonova, P. Q. Zokirov, X.

M. Oxunovning ilmiy asarlari bosilib chiqdi. Shuningdek, botanik-geografik ilmiy tadqiqotlar rivojiga D. K. Saidov, M. M. Nabiyev, T. A. Odilov, O. X. Hasanov, A. I. Usmonov, O'. Prator, S. S. Soatovlar ham muayyan hissa qo'shdilar.

Hayvonlar geografiyasiga doyr tadqiqotlarni O'zbekistonda zoolog D. N. Kashkarov va zoogeograf N. A. Bobrinskiylar olib bordi. O'zbekiston zoogeografiyasining keyingi rivoji T. 3. Zohidov, I. I. Kolesnikov, R. N. Meklenburshev, H. Solihboyev, G'. S. Sultonov, V. P. Kostin, G. I. Ishunin va b.ning ilmiy faoliyati bilan bog'liq.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Respublikada iqtisodiy va demografik tadqiqotlar 1920-yillardan boshlangan. Iqtisodchi hamda geograflar G. N. Cherdansev, N. N. Kojanov, N. K. Yaroshevich, Yu. I. Poslavskiy, A. I. Golovin va b. iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy va amaliy muammolari, O'rta Osiyo ishlab chiqaruvchi kuchlarini hududiy joylashtirish hamda rivojlantirish masalalari, aholi va qishloq aholi turar joylarini mufassal o'rganish muammolari bilan shug'ullandilar.

50-yillarda 3. M. Akramov, K. N. Bedrinsev, K. I. Lapkinlar qishloq xo'jaligini iqtisodiy tahlil qildilar.

50—60-yillarda O'zbekistonning hududiy ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish, majmualiy rivojlantirish, rayonlashtirish hamda bashorat qilish uch asosiy ilmiy yo'nalish — qishloq xo'jaligi geografiyasi, aholishunoslik, aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borildi.

Iqtisodiy rayonlashtirish va majmualiy iqtisodiy geografik tadqiqotlar. O'rta Osiyo va O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish masalalariga 40-yillarda Toshkentda yashagan geograf V. M. Chetirkin katta e'tibor berdi. Keyinchalik uning asosiy fikr va g'oyalari Z. M. Akramov, K. N. Bedrinsev, A. K. Bedrinsev, I. K. Narziqulov va b.ning ijodiy izlanishlarida rivojlantirildi.

Respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini majmualiy o'rganishga doyr yirik tadqiqotlar 1950-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ishlab chiqaruvchi kuchlarni o'rganish kengashi (SOPS) tomonidan boshlab berildi. Iqtisodiy geografik va majmualiy geografik tadqiqotlarni olib borishda 1958 yil tashkil

etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Geografiya bo'limi katta rol o'ynadi.

Qishloq xo'jaligi geografiyasi. O'zbeki ston qishloq xo'jaligini majmuali o'rganish va bashorat qilish, tabiiy sharoit va resurslariga qishloq xo'jaligi nuqqai nazaridan baholashga doyr tadqiqotlar olib borildi (K. I. Lapkin). O'zbekistonning chorvachiligini (qarang A. Abirqulov), agrar-sanoat majmuini (A. R. Ro'ziyev va A. M. Sodiqov), Farg'ona vodiysining qishloq xo'jaligini (O. Abdullayev) o'rganish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. O'zbekistan qishloq xo'jaligini turli regionlar va tarmoqlar bo'yicha tashkil etish muammolari o'rganildi (R. A. Xodiyev, T. E. Egamberdiyev, T. Tojimov, S. S Saidkarimov, T. Jumasv, K. K. Qurbonov, Sh. Azimov, R. U. Usmonov).

Aholishunoslik va aholi geografiyasi. Aholishunoslik muammolarini ilmiy o'rganish N. V. Smirnov, T. I. Raimov, O. B. Otamirzayev, A. S. Soliyev, A.A. Qayumovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi.

1960-yillarda Toshkent universitetining geografiya ilmiy tadqiqot bo'limida M. K. Qoraxonov rahbarligida majmuali aholishunoslik muammolari turli yo'nalishlarda tadqiq etildi, ayni vaqtda qishloq joylarini o'rganish boshlandi (R. Valiyeva, G. R. Asanov, E. Safarov).

1972 yil Toshkent Davlat Universitetida Aholishunoslik muammolari ilmiy tadqiqot laboratoriyasi ish boshladi.

Yirik poytaxt shaharlar (T. I. Raimov, E. Toshbekov) va shahar aglomeratsiyalarini (O. B. Otamirzayev, N. X. Mamatqulov) hamda umuman regiondagi aholi punktlari tizimlari, urbanizatsiyaning rivojlanishini (T. I. Raimov, O. B. Otamirzayev, A. S. Soliyev, X. S. Salimov va b.) o'rganish ham geograflarning diqqat markazida bo'ldi.

O'rta Osiyoda qishloq aholi turar joylarining shakllanishi, hududiy taqsimlanishi va rivojlanishi masalalari tadqiq qilindi (G. R. Asanov, A. B. Botirov, A. A. Kayumov, T. D. Jumasv, T. Mallaboyev, E. S. Safarov, M. Ya. Yangiboyev va b.). Aholining migratsiyasi (S. N. Kononenko), tabiiy o'sishi (M. Bo'riyeva, A. G'aniyev), demografik rivojlanishi (A. Sa'dullayev) masalalari ham o'rganildi. Ijtimoiy geografiyaning ilmiy-nazariy asoslari ham tadqiq etilmoqda (A. A. Kayumov). Respublikada sanoat geografiyasi (S. Zokirov, N. Sultonov va b.), transport geografiyasi, maishiy xizmat geografiyasi, geoekologiya va ijtimoiy ekologiya qanig iqtisodiy geografik jihatlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Preobrajenskiy V. S. i dr., Geografiya v menyayushemsya mire. Vek XX. M., 1997, 274 s;
2. Hasanov H., O'rtaosiyolik geograf va sayyohlar, T., 1964;
3. Qoriyev M., O'rta Osiyo tabiiy geografiney, 2-nashr, T., 1968.
4. www.vikepediya.com

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI

Xojixonova Shoxista Saidjonovna

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 24 umumiy o'rta ta'lim
maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6299759>

Annotatsiya: Maqolada ona tilini o'rgatishdagi amaliy mashg'ulotlarning o'rni va o'quvchilarning ingliz va o'zbek tillarini o'zlashtirishdagi farqlari hamda ona tilini fanga bo'lgan qiziqishni hisobga olishning dolzarbligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: PISA, kommunikativ, malaka, fanlararo, boshqa tillar.

THE ROLE OF MOTHER TONGUE SCIENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM

Xojixonova Shoxista Saidjonovna

School №24, Margilon district, Fargana region

Abstract: The article deals with practical training in the teaching of mother tongue place and differences in students' learning of English and Uzbek, as well as their mother tongue the urgency of taking into account the interest in science

Key words: PISA, communicative, skill, interdisciplinary, other languages.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda bir qancha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Misol tariqasida shuni ta'kidlash joizki, 2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun esa pedagoglar, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga yuklatilgan vazifalar talaygina: o'zbek tilining nufuzi, jahondagi o'rni, boshqa tillar bilan bimalol bellasha oladigan qirralarini ko'rsata olishi asosiy vazifadir. Avvalo, o'quvchini ona tili faniga qiziqtirish, unda fanga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, ona tilining biz bilmagan sir - sinoatlarini ochishga o'rgatish va, eng muhimi, amalda bajarish kerak. Shu bilan birga, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" dan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili fanini o'qitishda turli zamonaviy metod va usullardan foydalanish, foydalanilayotgan "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Special Issue 3 www.openscience.uz 95 metod va usullarning o'quvchilarga qay darajada samara berayotganini aniqlash

hozirgi kunda muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ona tili fanini o'qitishdan maqsad - o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati, adabiy til me'yoriga amal qilish va, eng asosiysi, fanga bo'lgan qiziqish susayib bormoqda hamda buni inkor qilib bo'lmaydi. Oxirgi yillarda ingliz, rus tillarini o'rganishga bo'lgan talab juda kuchli, bu, albatta, tobora jadal rivojlanib borayotgan jamiyat bilan bog'liq. Til bilgan yaxshi, ammo o'z ona tilisini mukammal bilmay turib boshqa tillarga mehr bilan qarash o'zbek tilining nufuzini yanada pasayishiga olib kelyapti, nazarimda. O'zbek xonadonlarining farzandini rus tili o'rgatiladigan sinf yoki maktablarga qo'yib bolani til o'rganish bilan bog'liq muammoga duch qilishyapti. Bola nutqida turli xil tildan foydalanish kuzatilyapti. O'zga tillarni o'rganib boshqa millat urf - odatlarini egallashga bo'lgan ishtiyoq, taqlid qilish kabilar kuchaymoqda. Pedagoglardan birinchi navbatda ona tilimizning jahondagi o'rnini, nufuzini o'quvchiga chuqur, juda chuqur singdirib, mehr uyg'otib, sir - sinoatini o'rgatib, boshqa tillar bilan bellasha oladigan qirralarini ko'rsatib undan keyin o'zga tillarni egallashdagi ehtiyoj nimadan iborat ekanligini tushuntira olish talab qilinadi. O'quvchi yangilikka intiluvchan bo'ladi. Har qanday fanni fanlararo bog'lab o'rgatish maqsadga muvofiq. O'quvchini fanga qiziqtirish, avvalo, pedagogning bilimi, malakasi bo'lsa, undan keyin dars jarayonida qo'llay oladigan zamonaviy metod va innavatsion texnologiyalardir. Ona tili fani o'quvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda maktablarda ona tili va adabiyot fanining chuqurlashtirib o'tilishini, sifatli dars mashg'ulotlari olib borilishini, fanlararo bog'lanishlarni kengroq ta'minlashga alohida ahamiyat berilishini talab etmoqda. Shunday ekan maktablarda o'quvchi-yoshlar qiziqishi, fanga moyilligi asosiy masaladir. Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va amalaiyotga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi mas'uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o'quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab tog'irlanib borilayotgan kamchiliklar o'quvchining chalg'ishiga olib kelmoqda. Ingliz tilidagi barcha darslik-qo'llanmalar esa suratlar, turli usul va metodlar bilan til o'rganishning yengil usuli orqali o'quvchini o'ziga jalb

etadi. Har bir nazariy qoida amalda bajarilib ko'rsatiladi. Bu har qanday o'quvchini o'ziga jalb "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Special Issue 3 www.openscience.uz 96 qiladi va barcha darsliklarni suratlar bilan bezatilgan holda mavzuga doir metodlarga moslab chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Fanlarning o'qitilishiga ijobiy ta'sirlar ko'rsatish uchun metodlarning o'rni juda katta. Hozirgi davrda ona tili fani bo'yicha o'quv dastur va rejalarni yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab va akademik litseyning o'quvchilari ona tilini muomala-aralashuv taqozo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohibiga aylanishlari daralmas ommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati rus tili o'qitish metodikasida yetarlicha o'rganilgan. Metodist-olim O.O.Xarchenko o'z maqolasida bugungi rus tili darsliklari kommunikativ yondashuv asosida yaratilayotganligini uqtiradi va shunga ko'ra ham ta'limning nutqiy (kommunikativ) yo'nalganlik tamoyilini ajratilish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa darslik bilan o'qituvchi ham, o'quvchi ham cheklanib qolishini oldini oladi va o'quvchi har bir fandan olgan bilim, malaka ko'nikmalarini hayotda o'zi mustaqil qo'llay olish imkonini beradi. Hayotimizda ro'y bergan, berayotgan va kelajakda ro'y beradigan jamiki narsalarni mavzular kesimida hayotdan olib, hayotga bog'lab amaliy isbotlab, amaliy ko'rsatib tasavvur uyg'otsak, yoshlar nafaqat ona tili va adabiyot fanlarida, balki boshqa fanlardan ham mantiqqa tayanib tasavvur hosil qiladilar. Ammo "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek o'quvchilar orasida hamma imkoniyat yaratilsa ham moyilligi bo'lmaslari topiladi. Keyingi paytlarda bosqichma - bosqich rivojlanib borayotgan ta'lim sohasida aynan ona tili fanining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad o'quvchi nutqini o'stirishdan iborat. Aynan darsliklar ham so'z boyligini oshirish bilan bog'liq turli mashq va topshiriqlarga urg'u bergan holda yaratilmoqda. Ya'ni so'zlarning shakl va ma'no munosabati, iboralar ma'nodoshligi, o'xshashligi, zid ma'noliligi, arxaik va tarixiy so'zlarning qo'llanilishi, matn ustida ishlash

